

---

## Buvayda tuman Davlat soliq idorasi rahbari tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi

Buvayda tuman Davlat soliq idorasi rahbari To'lqinjon Arzimatov ishtirokida Yuqorimang'it mahalla fuqarolar yig'inida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi

Uchrashuvlar jarayonida 2023-yil uchun soliq siyosati va stavkalari yuzasidan Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan kompleks chora-tadbirlar asosida tadbirkorlik subektlari sonini yanada ko'paytirish hamda ular tomonidan iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlar bilan o'tkazgan ochiq muloqotida tadbirkorlarga yaratilayotgan imtiyozlari to'g'risida tushunchalar berildi.

Tumanimizda aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilgan holda ularning bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotganligi takidlandi

Shundan so'ng tadbirkorlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar. Xususan bir nafar tadbirkorning elektr ta'minoti masalasida qilgan murojaati shu joyning o'zida bartaraf etildi. Ikki nafar fuqarolarning oilaviy tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun imtiyozli kredit olish bo'yicha qilgan murojaati hudud Hokim yordamchisiga o'rganish hamda tavsiya berish uchun yo'naltirildi.

Bunday tarzdagi ochiq muloqotlar hududlarda davom etmoqda.

2023-12-19 15:15:18